| KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION<br>MODELLASHTIRISH.....                                                                               | 393 |
| <b>Raximov Azizbek Zokirovich</b>                                                                                                                                  |     |
| OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM<br>XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....                                                                        | 400 |
| <b>Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich</b>                                                                                                                          |     |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH<br>ORQALI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING<br>STRATEGIK YO'NALISHLARI.....             | 404 |
| <b>Kodirova Xurshida Ismoilovna</b>                                                                                                                                |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT<br>TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI .....                                                           | 409 |
| <b>Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich</b>                                                                                                                           |     |
| <b>Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li</b>                                                                                                                              |     |



|                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....                                    | 416 |
| <b>Xamidova Soro</b>                                                                                                                    |     |
| <b>Toshpulatova Laylo</b>                                                                                                               |     |
| DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH.....                 | 423 |
| <b>Mariya Bekimbetova</b>                                                                                                               |     |
| SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI ..... | 427 |
| <b>Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi</b>                                                                                                 |     |
| SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....                 | 431 |
| <b>Arifbayev Bobir Dilshodovich</b>                                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI .....              | 439 |
| <b>Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi</b>                                                                                              |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI .....             | 443 |
| <b>Safarova Yulduz Abbos qizi</b>                                                                                                       |     |
| AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI MOLIVAVIY HISOBOTNI SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASHDA QO'LLASH .....                              | 448 |
| <b>Xusanov Shuxrat Burxonovich</b>                                                                                                      |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИВНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....                  | 454 |
| <b>Рузибоева Нилуфар Тўлқин қизи</b>                                                                                                    |     |
| ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR EFFICIENT WATER RESOURCE USE BASED ON CIRCULAR ECONOMY PRINCIPLES .....                    | 461 |
| <b>Sotvoldiyeva Muslimaxon Gayratjon kizi</b>                                                                                           |     |
| HUDUDIY IQTISODIY IXTISOSLASHUVNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY INDEKSLARI: TAHLILIY SHARH VA INTEGRAL YONDASHUV .....                         | 467 |
| <b>Mansurov Zikriyo Muxsinjon o'g'li</b>                                                                                                |     |
| QURILISH SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI.....  | 473 |
| <b>Karimov Inomjon Ortikbayevich</b>                                                                                                    |     |
| TRANSPORT SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR.....                                   | 480 |
| <b>Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi</b>                                                                                               |     |
| МЕХАНИЗМ ДЕЙСТВИЯ МЕСТНЫХ НАЛОГОВ И СБОРОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....                                                                | 484 |
| <b>Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич</b>                                                                                                   |     |
| IQTISODIY ADOLATNI TA'MINLASHNING SOLIQ-BUDJET MEXANIZMLARI: NAZARIY YONDASHUVLAR, MEZONLAR VA BAHOLASH USULLARI.....                   | 491 |
| <b>Alimov Nasimjon Hoshimovich</b>                                                                                                      |     |
| ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ФУНКЦИОНИРОВАНИИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ.....                                                               | 499 |
| <b>Исмагулова Гульмира Нуралиевна</b>                                                                                                   |     |
| ANALYSIS OF AGRICULTURAL EXPORT DEVELOPMENT TRENDS AND EXPORT GEOGRAPHY IN UZBEKISTAN .....                                             | 504 |
| <b>Qobilova Malika Uktamovna</b>                                                                                                        |     |
| <b>Usanova Feruza Zafar kizi</b>                                                                                                        |     |
| <b>Muratov Shukrullo Abduraimovich</b>                                                                                                  |     |



|                                                                                                                                                                   |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'ZBEKISTON TURIZM TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLARNI TIZIMLI TAHLIL QILISH VA ULARNI BARTARAF ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI .....        | 508 |
| <b>Khusniddin Egamnazarov</b>                                                                                                                                     |     |
| IKKI YOQLAMA SOLIQQA TORTISHNING OLDINI OLIHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASH AMALIYOTI.....                                   | 516 |
| <b>Sarsengalieva Albina Askar qizi</b>                                                                                                                            |     |
| TIJORAT BANKLARI DEPOZIT PORTFELINING TARKIBIY TAHLILI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....                                                                | 524 |
| <b>Abduganiyev Shoxruxbek Shavkatbek o'g'li</b>                                                                                                                   |     |
| MILLIY IQTISODIYOTNI SANOATLASHUVINING HAJMIY VA SIFAT O'LG'AMHLARI O'RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK TAHLILI.....                                                       | 533 |
| <b>Erkayev Akrom Normuxammadovich</b>                                                                                                                             |     |
| ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ICHKI TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                                           | 540 |
| <b>Muxtarov Botir Abdusattarovich</b>                                                                                                                             |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA DRON TEXNOLOGIYALARINING MEHNAT VA ENERGIYA RESURSLARINI TEJASHGA TA'SIRINI INTEGRAL BAHOLASH METODIKASI .....                                | 546 |
| <b>Maxmudov Saidalo Ma'ruf o'g'li</b>                                                                                                                             |     |
| BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA TANLAMA NATIJALARINI BAHOLASH, BUZILISHLARNI EKSTRAPOLYASIYA QILISH VA ULARNI «MASOFAVIY AUDIT» TIZIMI BILAN INTEGRATSIYALASH..... | 553 |
| <b>Muqumov Jasur Bosimovich</b>                                                                                                                                   |     |
| BARQAROR RIVOJLANISH JARAYONIDA BIOIQTISODIYOTNING ROLI VA AHAMIYATI .....                                                                                        | 560 |
| <b>Pulaton Baxtiyor Alimovich</b>                                                                                                                                 |     |
| <b>Xakimov Bunyod Bahodir o'g'li</b>                                                                                                                              |     |

# BARQAROR RIVOJLANISH JARAYONIDA BIOIQTISODIYOTNING ROLI VA AHAMIYATI



**Pulatov Baxtiyor Alimovich**  
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) rektori,  
texnika fanlari doktori, professor.  
ORCID: 0000-0001-9764-482X



**Xakimov Bunyod Bahodir o'g'li**  
Talaba.  
O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya) Ijro intizomi va hujjatlar aylanishini nazorat qilish bo'limi boshlig'i.  
E-mail: bunyod7700@mail.ru

**Annotatsiya.** Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida bioiqtisodiyotning nazariy asoslari hamda uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilingan. Bioiqtisodiyot tushunchasining evolyutsiyasi, xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishni rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot adabiyotlar sharhi hamda mavjud statistik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish metodlariga asoslangan. Olingan natijalar bioiqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim vositasi ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** bioiqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, bioresurslar, innovatsion texnologiyalar, ekologik barqarorlik, aylanma iqtisodiyot.

**Аннотация.** В рамках концепции устойчивого развития проанализированы теоретические основы биоэкономики, а также её экономические, экологические и социальные аспекты. Освещены эволюция понятия биоэкономики, международный опыт и перспективы развития данного направления в условиях Узбекистана. Исследование основано на обзоре научной литературы и методе сравнительного анализа имеющихся статистических данных. Полученные результаты свидетельствуют о том, что биоэкономика является важным инструментом достижения целей устойчивого развития за счёт рационального использования ресурсов, охраны окружающей среды и внедрения инновационных технологий.

**Ключевые слова:** биоэкономика, устойчивое развитие, зелёная экономика, биоресурсы, инновационные технологии, экологическая устойчивость, циркулярная экономика.

**Abstract.** The theoretical foundations of the bioeconomy, together with its economic, environmental, and social dimensions, are analyzed within the framework of the sustainable development concept. The evolution of the bioeconomy concept, international experience, and the prospects for developing this field in Uzbekistan are examined. The study is based on a review of the relevant literature and a comparative analysis of available statistical data. The findings demonstrate that the bioeconomy is an important instrument for achieving sustainable development goals through the rational use of resources, environmental protection, and the implementation of innovative technologies.

**Keywords:** bioeconomy, sustainable development, green economy, bioresources, innovative technologies, environmental sustainability, circular economy.



## KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti tabiiy resurslarning cheklanganligi, iqlim o'zgarishi, ekologik muammolarning kuchayishi va aholi sonining o'sishi kabi jiddiy omillar ta'sirida rivojlanmoqda. Ushbu sharoitda an'anaviy iqtisodiy o'sish modellaridan bosqichma-bosqich resurslardan samarali va oqilona foydalanishga asoslangan yangi iqtisodiy paradigmalarga o'tish zarurati tobora ortib bormoqda. Bioiqtisodiyot aynan shunday paradigmalardan biri bo'lib, biologik resurslar, biotexnologiyalar va bilimlarga asoslangan innovatsion yechimlar orqali iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi [1].

Bioiqtisodiyot tushunchasi ilk bor ilmiy muomalaga XX asrning oxirida kiritilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, oziq-ovqat sanoati, energetika va farmatsevtika kabi qator sohalarni qamrab oluvchi keng qamrovli iqtisodiy tizim sifatida shakllandi. Yevropa Ittifoqi tomonidan **2012-yilda** qabul qilingan bioiqtisodiyot strategiyasi mazkur sohaning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Unda bioiqtisodiyot nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi kompleks yondashuv sifatida talqin etilgan [2].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi **1987-yilda** Brundtland komissiyasi hisobotida ilk bor rasmiy ta'riflangan bo'lib, u hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga putur yetkazmagan holda qondirishni anglatadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, oqilona iste'mol va ishlab chiqarish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash hamda quruqlikdagi ekotizimlarni muhofaza qilish kabi ustuvor yo'nalishlari bioiqtisodiyot bilan bevosita bog'liq hisoblanadi [3]. Shu nuqtai nazardan, bioiqtisodiyotni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning strategik vositasi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi bioiqtisodiyotning barqaror rivojlanish jarayonidagi o'rni va ahamiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish, xalqaro tajribani umumlashtirish hamda O'zbekiston sharoitida bioiqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bioiqtisodiyot mavzusidagi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari, xususan, Yevropa Komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Jahon banki tomonidan chop etilgan hisobotlar ilmiy tahlil uchun muhim manba hisoblanadi. Rossiyalik olimlarning ishlarida bioiqtisodiyot, asosan, texnologik va sanoat nuqtai nazaridan, ya'ni biotexnologiyalarning sanoat tarmoqlariga tatbiq etilishi kontekstida ko'rib chiqiladi. Xususan, rus tadqiqotchilari bioiqtisodiyotni innovatsion iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida talqin etib, uning ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar [4]. Mazkur yondashuv G'arb tadqiqotchilarining, xususan, nemis va daniyalik olimlarning qarashlaridan farqli ravishda, bioiqtisodiyotni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan innovatsion siyosat asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Yevropalik tadqiqotchilar bioiqtisodiyotni uch xil model asosida izohlaydilar. Birinchi model — biotexnologik model bo'lib, u genetik muhandislik va biotexnologiyalarning iqtisodiy ahamiyatini yoritadi. Ikkinchi model — bioresurs modeli bo'lib, u qayta tiklanuvchi biologik resurslarni qayta ishlash hamda ulardan yangi mahsulotlar yaratishga qaratilgan. Uchinchi model esa ekologik model bo'lib, unda ekotizim xizmatlari va ekologik barqarorlik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi [5]. Ushbu uch model o'zaro bir-birini to'ldiruvchi yondashuv sifatida amaliyotda qo'llanilib, turli mamlakatlarning milliy strategiyalarida o'ziga xos nisbatlarda aks etadi.

O'zbek tadqiqotchilarining ishlarida bioiqtisodiyot mavzusi hali yetarli darajada chuqur o'rganilmagan bo'lib, mavjud tadqiqotlar, asosan, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va organik mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Milliy iqtisodchilarning fikricha, O'zbekistonda bioiqtisodiyotni rivojlantirish uchun boy tabiiy resurslar, qulay agroiklim sharoitlari hamda qishloq xo'jaligi sohasidagi an'anaviy tajriba muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi [6]. Shu bilan birga, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish mazkur yo'nalishning istiqbolli rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

Aylanma iqtisodiyot konsepsiyasi bilan bioiqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Aylanma iqtisodiyot chiqindilarni minimallashtirish va resurslardan qayta foydalanish siklini uzaytirishga qaratilgan bo'lsa, bioiqtisodiyot biologik kelib chiqishga ega resurslarni barqaror boshqarishga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu ikki konsepsiyaning integratsiyasi natijasida yashil iqtisodiyotning yangi yo'nalishi, ya'ni bioaylanma iqtisodiyot tushunchasi shakllanmoqda [7]. Xalqaro tajriba bioaylanma iqtisodiyot modelini joriy etgan mamlakatlarda ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sarfi va chiqindilar hajmi sezilarli darajada qisqarganini ko'rsatadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda statistik ma'lumotlar bazalarini qiyosiy va tizimli tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot jarayonida bioiqtisodiyot sohasiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish, ularni o'zaro taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy xulosalar chiqarish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, bioiqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini baholashda qiyosiy tahlil hamda ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodlari qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil natijalari bioiqtisodiyotning global iqtisodiyotdagi ulushi so'nggi o'n yillikda barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bioiqtisodiyot sohasi millionlab ish o'rinlarini ta'minlaydi hamda yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etadi. Quydagi jadvalda ayrim mamlakatlarning bioiqtisodiyot sohasidagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval  
Ayrim mamlakatlarda bioiqtisodiyot sohasining asosiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

| Mamlakat    | Bioiqtisodiyotning YIMdagi ulushi (%) | Sohadagi band aholi (mln kishi) | Asosiy yo'nalish                       |
|-------------|---------------------------------------|---------------------------------|----------------------------------------|
| Germaniya   | 7,8                                   | 4,9                             | Biotexnologiya, qishloq xo'jaligi      |
| Daniya      | 9,2                                   | 0,4                             | Bioenergetika, oziq-ovqat sanoati      |
| Finlyandiya | 10,5                                  | 0,3                             | O'rmon xo'jaligi, sellyuloza sanoati   |
| Rossiya     | 4,1                                   | 3,2                             | Qishloq xo'jaligi, farmatsevtika       |
| O'zbekiston | 2,3                                   | 3,8                             | Qishloq xo'jaligi, paxta-to'qimachilik |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Shimoliy Yevropa mamlakatlari, xususan, Finlyandiya va Daniya bioiqtisodiyot sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan bo'lib, bu holat ularning o'rmon xo'jaligi hamda bioenergetika yo'nalishlarida ilg'or texnologiyalarni keng joriy etgani bilan izohlanadi. O'zbekistonda esa bioiqtisodiyotning YIMdagi ulushi nisbatan past darajada bo'lib, mazkur sohaning asosiy qismi an'anaviy qishloq xo'jaligiga tayanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sohada band bo'lgan aholi sonining nisbatan yuqori ekanligi mehnat unumdorligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali sezilarli iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi.

Bioiqtisodiyotning barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shayotgan hissasini baholash maqsadida uning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Quydagi jadvalda bioiqtisodiyotning asosiy tarmoqlarining barqaror rivojlanish maqsadlariga ta'siri tizimlashtirilgan (1-jadval).

2-jadval  
Bioiqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanish maqsadlariga ta'siri<sup>2</sup>

| Tarmoq                               | Ekologik samaradorlik | Iqtisodiy salohiyat | Ijtimoiy ta'sir |
|--------------------------------------|-----------------------|---------------------|-----------------|
| Bioenergetika                        | Yuqori                | O'rta               | O'rta           |
| Organik qishloq xo'jaligi            | Yuqori                | O'rta               | Yuqori          |
| Biotexnologik farmatsevtika          | O'rta                 | Yuqori              | Yuqori          |
| Qayta ishlangan bioresurslar         | Yuqori                | Yuqori              | O'rta           |
| Ekoturizm bilan bog'liq bioresurslar | O'rta                 | O'rta               | Yuqori          |

Ikkinchi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qayta ishlangan bioresurslar tarmog'i barqaror rivojlanishning uchala yo'nalishi, ya'ni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar bo'yicha nisbatan muvozanatli natijalarni ta'minlaydi. Bu esa bioresurslarni chuqur qayta ishlash va ularga qo'shimcha qiymat yaratish orqali mamlakatlar bir vaqtning o'zida bir nechta barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishlari mumkinligini ko'rsatadi. Organik qishloq xo'jaligi va ekoturizm sohalari esa ijtimoiy ta'sir nuqtayi nazaridan yuqori natijalarni namoyon etadi, chunki ushbu yo'nalishlar mahalliy aholining bandligini ta'minlash hamda qishloq hududlarida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi.

1 Manba: [2, 4, 8] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2 Manba: [3, 5, 9] asosida muallif tomonidan tuzilgan.



O'zbekiston sharoitida bioiqtisodiyotni rivojlantirish uchun bir qator strategik yo'nalishlarni belgilash mumkin. Birinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish orqali xom ashyoni eksport qilish o'rniga yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, bioenergetika sohasini, xususan, qishloq xo'jaligi chiqindilaridan biogaz va biomassa energiyasini olish texnologiyalarini rivojlantirish energiya xavfsizligini mustahkamlash bilan bir qatorda ekologik muammolarni hal etishga ham xizmat qiladi. Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida biotexnologiya yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashni kuchaytirish hamda xorijiy ilg'or tajribani milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [10].

Shuningdek, davlat tomonidan bioiqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan alohida strategik dastur va me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish, xususi sektor investitsiyalarini rag'batlantiruvchi soliq hamda moliyaviy imtiyozlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bioiqtisodiyot sohasidagi muvaffaqiyatli islohotlar davlat, ilm-fan va biznes o'rtasidagi samarali hamkorlik asosida amalga oshiriladi.

Bioiqtisodiyot sohasining rivojlanish darajasini baholashda nafaqat statistik ko'rsatkichlar, balki mamlakatlarning institutsional salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda bioiqtisodiyot sohasini boshqarish uchun alohida davlat dasturlari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda davlat va xususi sektor hamkorligi platformalari faoliyat yuritadi. Bu esa yangi ishlanmalarning tezkor sinovdan o'tkazilishi va bozorga chiqarilishini ta'minlaydi. O'zbekistonda esa mazkur yo'nalishdagi institutsional mexanizmlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bioiqtisodiyotga oid loyihalar asosan tarmoq vazirliklari va idoralarning umumiy faoliyati doirasida amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni kuchaytirish resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

Tahlil natijalari bioiqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari mamlakatning ilm-fan sohasiga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Yuqori natijalarga erishgan Shimoliy Yevropa mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismi ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga yo'naltiriladi, bu esa biotexnologik innovatsiyalarning muntazam ravishda amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlaydi. Rossiya kabi resurs salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda esa bioiqtisodiyot ko'rsatkichlarini yanada oshirish ilmiy natijalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq. Mazkur jihat O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, mavjud ilmiy salohiyatni amaliy iqtisodiy natijalarga samarali yo'naltiruvchi vositachi tuzilmalarni yanada rivojlantirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Bioiqtisodiyotning hududiy jihatlarini ko'rib chiqish ham muhim natijalarni beradi. O'zbekistonning turli hududlari tabiiy resurslar salohiyati bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash uchun qulay sanoat infratuzilmasiga ega bo'lsa, Orolbo'yi mintaqasi ekologik tiklanish va bioxilma-xillikni saqlash borasida alohida yondashuvni talab etadi. Shu sababli bioiqtisodiyotni rivojlantirish siyosatini yagona umummilliy dastur bilan bir qatorda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi differensiallashgan strategiyalar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muvozanatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, bioiqtisodiyotning raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlash lozim. Zamonaviy sharoitda katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va aniqlik dehqonchiligi texnologiyalari bioresurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Bunday texnologiyalar tuproq unumdorligini monitoring qilish, sug'orish tizimlarini optimallashtirish va hosildorlikni prognozlash orqali qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida muhim qadamlarni tashlamoqda. Kelgusida ushbu jarayonni bioiqtisodiyot strategiyasi bilan uzviy uyg'unlashtirish sohaning ustuvor rivojlanish yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bioiqtisodiyotni rivojlantirishda ta'lim tizimining o'rne ham alohida e'tiborga loyiqdir. Malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liq masalalar ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham bioiqtisodiyotning jadal rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Biotexnologiya, agroekologiya va bioinjining yo'nalishlarida chuqur bilimga ega mutaxassislar salohiyatini yanada oshirish ilmiy ishlanmalarning amaliyotga tatbiq etilish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida tegishli yo'nalishlar bo'yicha o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish, xalqaro universitetlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish hamda yosh tadqiqotchilarni xorijiy malaka oshirish dasturlariga jalb etish sohaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, bioiqtisodiyot sohasining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish masalasi ham tahlil natijalarida muhim o'rin egallaydi. Xususi sektor va xorijiy investorlarning bioiqtisodiyot loyihalariga mablag' kiritishi ko'pincha uzoq muddatli daromadlilik hamda yuqori boshlang'ich xarajatlar bilan bog'liq xususiyatlar sababli ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi. Bunday sharoitda davlat tomonidan kafolat mexanizmlarini yaratish, imtiyozli kreditlash tizimlarini joriy etish hamda davlat-xususi sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish investorlar uchun yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro moliya



institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish bioiqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning istiqbolli qo'shimcha manbalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari bioiqtisodiyotning barqaror rivojlanish jarayonida muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Bioiqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, bioiqtisodiyotni rivojlantirishda yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar va xususiy sektor investitsiyalarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali samarali natijalarga erishgan.

O'zbekiston uchun bioiqtisodiyot sohasini rivojlantirish, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, bioenergetika va biotexnologiya yo'nalishlarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash, ekologik muammolarni hal etish hamda aholi bandligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda bioiqtisodiyotning mintaqaviy xususiyatlarini, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari sharoitida bioresurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu boradagi ilmiy izlanishlar bioiqtisodiyotni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ushbu yo'nalishning milliy iqtisodiyotdagi o'rini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bugge M.M., Hansen T., Klitkou A. *What Is the Bioeconomy? A Review of the Literature // Sustainability*. 2016. Vol. 8, No. 7. P. 691.
2. European Commission. *Innovating for Sustainable Growth: A Bioeconomy for Europe*. Brussels: Publications Office of the European Union, 2012. 60 p.
3. United Nations. *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: UN, 2015. 41 p.
4. Пыжев А.И., Зандер Е.В. Биоэкономика как новая парадигма развития: теоретические аспекты // Экономика природопользования. 2019. № 3. С. 45–58.
5. Birner R. Bioeconomy concepts // *Bioeconomy: Shaping the Transition to a Sustainable, Biobased Economy* / Ed. by I. Lewandowski. Cham: Springer, 2018. P. 17–38.
6. Умаров Х.У., Каримов Ш.Т. Экологик барқарор қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. 2021. № 2. Б. 112–120.
7. Kardung M., Cingiz K., Costenoble O. et al. *Development of the Circular Bioeconomy: Drivers and Indicators // Sustainability*. 2021. Vol. 13, No. 1. P. 413.
8. OECD. *The Bioeconomy to 2030: Designing a Policy Agenda*. Paris: OECD Publishing, 2009. 322 p.
9. Bracco S., Calicioglu O., Gomez San Juan M., Flammini A. *Assessing the Contribution of Bioeconomy to the Total Economy: A Review of National Frameworks // Sustainability*. 2018. Vol. 10, No. 6. P. 1698.
10. Тошматов Р.А. Ўзбекистонда инновацион иқтисодиётни шакллантиришнинг устувор йўналишлари. Тошкент: Иқтисодиёт, 2020. 184 б.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 7/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>